



TA'LIMNI BOSHQARUV TIZIMLARIDA TALABA PROFILINING IMKONIYATLARI

R.A.Sobirov, Z.Usmanov.

*International Digital University, "Axborot tizimlari va raqamli iqtisodiyot"
kafedrası*


KIRISH. Hozirgi yashab kelayotgan davrimizning ustuvor vazifalaridan bu - ta'limda sifatni yaxshilash va takomillashtirish hisoblanadi. Ta'limdagi islohotlar kelajakda katta samara berishini rivojlangan mamlakatlarning tajribasi yaqqol isbotlab turibdi. Bugun mamlakatimizda aynan ta'lim sohasiga yangicha boshqaruv tizimlarini joriy etish, ta'lim jarayonini tashkil etish darajasini jahon tajribasi asosida rivojlantirish, ta'lim sifatini oshirish va kelajakda mutaxassislarning mas'uliyatini rivojlantirish dolzarb masalaga aylangan. Aynan shu maqsadlarni ko'zda tutgan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF60-son bilan tasdiqlangan "2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi farmoni va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020- yil 31-dekabrda 824-son "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim jarayonini tashkil etish bilan bog'liq tizimni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari ijrosini ta'minlash maqsadida oliy ta'lim muassasalarida kredit-modul tizimi bosqichma-bosqich joriy qilina boshladi.

Kredit-modul tizimining joriy etilishi o'qituvchi va talabaning hamkorlikda ishlashida muhim omil hisoblanadi. Talaba esa yo'naltirilgan obyekt tomon mustaqil harakat qiladi. Eng katta urg'u ham talabalarning mustaqil ta'lim olishiga qaratiladi. O'quv jarayonida mustaqil ta'lim olishning ahamiyati ortadi va bu kelajakda mutaxassislarning mustaqilligi, ijodiy tashabbuskorligi hamda faolligini oshirishga olib keladi. Kredit-modul tizimida universitet talabalari har doim o'qituvchi va kursdoshlaridan yordam hamda maslahat olish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu esa o'zaro hamjihatlikni mustahkamlaydi va jamoada ishlash ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Bugungi kunda ko'pchilik oliy ta'lim muassasalarida

ta`limni boshqaruv tizimi sifatida HEMIS, Moodle, Google Classroom va Canvas tizimlaridan foydalanib kelmoqdalar.


HEMIS masofaviy o`qitish platformasining funksional tahlili

HEMIS tizimi oliy ta`lim faoliyatini avtomatlashtirish hisobiga ma`muriy xodimlar, professor-o`qituvchilar va talabalarga elektron ta`lim xizmatlarini taqdim etadi. HEMIS axborot tizimi — bu o`qituvchilarning kaliti, shaffoflikni ta`minlaydigan yagona platforma sifatida ma`lumotlar kiritiladigan baza hisoblanadi. HEMIS tizimining umumiy strukturasi quyidagicha keltirishimiz mumkin:



1-rasm. Hemis tizimining umumiy funksional tuzulishi.

Hemis student. Talaba profili orqali quydagilarni amalga oshirish mumkin: Alohida talaba login va paroli bilan kiriladi. Identifikatsion kodni talaba istalgan vaqtda o`zgartirish mumkin.





O`quv reja- ushbu bo`limda talaba butun kurs davomida o`tiladigan fanlar, kreditlar va ularning o`quv yuklamalari haqida ma`lumot oladi. Ushbu bo`limda talabaga birlashtirilgan yoki taklif qilinayotgan fanlar ro`yhati va baholash me`zonlari bilan tanishadi.

Fan resurslari- bo`limda talabaning semester davomida o`qitiladigan fanlar bo`yicha o`quv materiallar beriladi. Asosan adabiyotlar, ma`ruza matnlari video va audio malumotlarni talaba ushbu bo`limdan olishi mumkin bo`ladi.

Dars jadvali-bu bo`lim orqali talaba o`zing dars jadvalini va uning qayerda bo`lishini tizim orqali to`g`ridan-to`g`ri bilishi mumkin bo`ladi.

O`zlashtirish ko`rsatkichi- tizimning muhim funksiyalaridan hisoblanib talaba fanlardan berilgan topshiriqlar bo`yicha o`zining reyting baholarini kuzatib boradi. Talabaning umumiy fan bo`yicha reyting ko`rsatkichi modul tugagandan keyin shakillantiriladi va bazada avtomatik saqlanadi.

Xabarlar- talaba to`g`ridan-to`g`ri o`qituvchi bilan chat orqali murojatlarni yuborishi mumkin. Izohlar qoldirish, o`qituvchi tomonidan talabaga eslatmalar berib boriladi.

Topshiriqlar- talabaga semester davomida o`qitiladigan fanlardan topshiriqlar berib boriladi. Talaba topshiriqlarni belgilangan muddatda tizimga yuklashi va topshiriqlar bo`yicha reyting ballarni muntazam kuzatib borishi mumkin. Undan tashqari o`qituvchi tomonidan berilgan mavzular bo`yicha test topshiriqlari beriladi, talaba bilimini tekshirib ko`rishi uchun testlarni ishlashi va mavzularni mustahkamlab olish imkoniga ham ega bo`ladi.

Davomat- agar talaba belgilangan dars jadvali asosida darsga qatnashmasa, talaba profilidan darsga qatnashmaganlik belgilarini va umumiy qoldirgan dars soatlarni ko`rib olishi mumkin.

Buyruqlar- ushbu bo`limda talaba o`ziga nisbatan fakultet dekanati yoki oliy ta`lim muassasasi rahbariyati tomonidan ishlab chiqilgan buyruqlar joylashgan. Bu buyruqlar bo`lishi mumkin talabaning o`qishga qabul qilinganlik to`g`risidagi ma`lumotlar, kursdan-kursga ko`chirilganlik to`g`risidagi buyruqlar va hakazo.



Shartnomalar- talaba agar to'lov shartnomasi asosida ta'lim olayotgan bo'lsa mazkur bo'limda to'lov shartnomasi shakillantiriladi. Oliy ta'lim muassasasi buxgalteriya bo'limi tomonidan talabaga to'lov shartnomasi rasmiylashtirilgan bo'lsa, talaba to'lov shartnomasini tizimning o'zidan yuklab olish imkoniga ega bo'ladi. Bu esa talabaga ortqcha ovoragarchiliklarni oldini oladi.

Ma'lumotlar - Talaba ID guvohnomasining elektron varianti, shartnomalar, reyting daftarcha, o'quv varaqasi, nazoratlar jadvali, talaba davomati to'g'risidagi umumiy ma'lumotlar, buyruqlar va boshqa tegishli ma'lumotlar

Yuqoridagilar talabaning hemis tizimidan foydalanishi mumkin bo'lgan oxirgi shakildagi funkcionallar hisoblanadi. Oliy ta'lim jarayonlarini boshqarish – HEMIS axborot tizimi 100 dan ortiq boshqa axborot tizimlari bilan integratsiya qilingan.


Moodle tizimida masofaviy o'qitish platformasining funksional tahlili

Kredit-modul tizimida o'qitishni samarali tashkil etishda ta'lim muassasasining ta'lim axborot tizimlarini samarali ishlab chiqish zarurdir. Bugungi kunda o'quv jarayonini samarali tashkil etish maqsadida, ta'limni boshqarish tizimlariga ehtiyoj nihoyatda ortgan, jumladan o'quv jarayonida LMS(Learning management systems) ta'limni boshqaruv tizimlarini joriy etish keng qo'llanimoqda.

Moodle – bu o'qituvchilar tomonidan online-kurslarni yaratish uchun maxsus ishlab chiqilgan sayt tarkibini boshqarish tizimi (Content Management System - CMS) dir. Uni ko'pincha E-learning tizimlarni o'qitishni boshqarish tizimlari (Learning Management Systems - LMS) yoki virtual o'qitish vositasi (Virtual Learning Environments - VLE) deb ham atashadi.

Moodle tizimi asosan *mudulli ob'ektga mo'ljallangan dinamik ta'lim muhitini boshqarish tizimi* bo'lib hisoblanadi. Moodle tizimining asoschisi Avstraliyaning Curtin universiteti “Kompyuter ilmi va ta'lim” yo'nalishi o'qituvchisi **Martin Dougiamas** bo'lib, u bu sistemani yaratish g'oyasini 1999 yilda ilgaru surdi va 2002 yilda Moodle 1.0 tizimini yaratdi. Bu sistema bepul kengaytirilgan dasturiy kompleks bo'lib, o'zining funksional imkoniyatlariga asosan keng miqiyosida masofaviy ta'lim oluvchilarga qulayliklar yaratib beradi. Bugungi

kunda moodle tizimidan jahonning nufuzli universitetlari ta'lim berish jarayonida foydalanib kelmoqda. Moodle - masofaviy ta'limni boshqarish tizimining bugungi kunda jahonning 200 ga yaqin mamlakatlarida 70 tilga mo'ljallangan 46 mingdan ortiq ta'lim portallari bo'lib, unga 2 mlnga yaqin foydalanuvchilar ro'yxatdan o'tkazilgan va ular 300 dan ortiq ishlab chiqaruvchi dasturchilarni o'zida mujassamlashtirgan.



2-rasm. Moodle tizimining umumiy funksional tuzulishi.

O'quv rejalar- ushbu bo'limda talaba butun kurs davomida o'tiladigan fanlar, kreditlar va ularning o'quv yuklamalari haqida ma'lumot oladi. Ushbu bo'limda talabaga biriktirilgan yoki taklif qilinayotgan fanlar ro'yhati va baholash me'zonlari bilan tanishadi.

O'quv kurslari- ushbu bo'limda talaba talaba o'quv semestri davomida o'qitilgan fanlar bo'yicha kurs ma'lumotlari va fan resurslarini olishlari mumkin bo'ladi.

Fan resurslari- bo'limda talabaning semester davomida o'qitiladigan fanlar bo'yicha o'quv materiallar beriladi. Asosan adabiyotlar, ma'ruza matnlari video va audio malumotlarni talaba ushbu bo'limdan olishi mumkin bo'ladi.


Nazorat jadvallari- bu bo'lim orqali talaba o'zing fan bo'yicha belgilan nazorat jadvalini va uning qayerda bo'lishini tizim orqali to'g'ridan-to'g'ri bilishi mumkin bo'ladi.

Topshiriqlar- talabaga semester davomida o'qitiladigan fanlardan topshiriqlar berib boriladi. Talaba topshiriqlarni belgilangan muddatda tizimga yuklashi va topshiriqlar bo'yicha reyting ballarni muntazam kuzatib borishi mumkin.


Xabarlar- bu moodle xabar almashish tizimi bo'lib, u yerda kurslaringizdagi boshqa foydalanuvchilar bilan muloqot qilishingiz mumkin.

Canvas tizimida masofaviy o`qitish platformasining funksional tahlili

Canvas-bu o'quv jarayonini samarali tashkil etish, barcha kerakli ta'lim elementlarini avtomatlashtirishga yordam beradigan ta'limni boshqarish tizimi. Bugungi kunda, Canvas akademik va ta'lim muassasalari (maktablar, kollejlari, institutlar, universitetlar) tomonidan ishlatiladi, 3000 dan ortiq ta'lim muassasalari ushbu platformani tanladi (Stenford, Garvard, Penn, Kentukki universiteti va boshqalar).



Talabalar o'qituvchisi kurs uchun ruxsat bergan istalgan Canvas sohasida qatnashishi mumkin. Talabalar bir yoki bir nechta kurslar bilan bog'lanishi mumkin va ish topshirishlari, baholar, topshiriqlar va voqealarni ko'rishlari va boshqa kurs a'zolari bilan muloqot qilishlari mumkin.



3-rasm. Canvas tizimining umumiy funksional tuzilishi.



Ta'lim muassasasiga qarab, talabalar Canvas kurslariga kirishning turli darajalariga ega bo'lishi mumkin. Talabalar barcha o'tmish, joriy va kelajakdagi kurslarga kirishlari mumkin. Shu bilan bir qatorda, talabalar individual kurslarga yozilishi mumkin. Talabalar kursga avtomatik ravishda SIS importi orqali yoki o'qituvchi tomonidan qo'lda yoki o'z-o'zidan ro'yxatdan o'tish orqali yozilishi mumkin.

Kirish. Talabalar Canvas tizimiga ta'lim olayotgan muassasalari tomonidan tizimga kiritiladi. Agar talaba tizimga mavjud bo'lmasa Canvas tizimidan o'zlari ro'yhatdan o'tishlari mumkin.

E'lonlar. Canvas tizimi mamuriyati, muassasa boshqaruv hodimlari va fan mashg'ulotlari bo'yicha berilgan e'lonlarni muntazam ko'rib borishi va izohlar qoldirishi mumkin bo'ladi.

Topshiriqlar. Ushbu menyu orqali fanlar bo'yicha berilgan topshiriqlarni bajarish ularni tahrirlash va qayta yuborishlari mumkin. Agar sizda topshiriqlar havolasi mavjud bo'lmasa, siz foydalanuvchi yoki kurs boshqaruv paneli, Syllabus, Baho kitobi, Kalendar yoki Modullar orqali topshiriqlarga kirishingiz mumkin.

Kalendar. Talab a'zo bo'lgan barcha kurslarni o'z ichiga oladi. Calendar orqali siz mashg'ulotlarning vaqti va kunini aniqlab olishingiz mumkin. Undan tashqari Canvas tizimida talabaning kurs bo'yicha topshirishi kerak bo'lgan topshiriqlar sanasini ham ko'rib borishi va o'zlari uchun alohida topshiriq vaqtlarini ham belgilab borishlari mumkin.

Chat vositasidan kurs foydalanuvchilari bilan real vaqtda suhbatlashish uchun foydalanish mumkin. Kursdagi istalgan foydalanuvchi chat suhbatida qatnashishi mumkin. Kurs suhbatidagi barcha tarkibni kursdagi har kim ko'rishi mumkin. Hozirda kurs suhbatini uchun yuklanish chegarasi yo'q, lekin kurs foydalanuvchilarining ko'pligi ishlashga ta'sir qilishi mumkin. Chat ro'yxatida paydo bo'lishi uchun foydalanuvchi chat vositasini faol ravishda ko'rishi kerak.

Hamkorlik. Agar muassasangiz ruxsat bersa, kursda hamkorlik yaratishingiz mumkin. Sizing o'qituvchingiz har doim siz yaratgan har qanday hamkorlikni ko'rishi mumkin, ammo boshqa talabalar faqat ular bilan baham ko'rilgan



hamkorlikni ko'rishlari mumkin. Agar o'qituvchingiz sizni kurs guruhiga qo'shgan bo'lsa, siz har doim guruh ichida hamkorlik yaratishingiz mumkin. Google Docs har bir hamkorlikda 50 tagacha foydalanuvchi qo'shish imkonini beradi va barcha foydalanuvchilar bir vaqtning o'zida hujjatni ko'rishlari va tahrirlashlari mumkin.

Konferentsiya. Konferentsiyalar sahifasi kursdagi barcha konferentsiyalarni ko'rish imkonini beradi. Talaba sifatida siz ishtirok etishga taklif qilingan konferentsiyalarda qatnashishingiz mumkin. Talabalar guruhlarida siz yangi konferentsiyalar yaratishingiz, konferentsiyalarni boshlashingiz va yakunlangan konferentsiyalarni boshqarishingiz mumkin.

Kurs navigatsiyasi. Agar siz talaba sifatida kursga ro'yxatdan o'tgan bo'lsangiz, Kursning bosh sahifasi kursingizda harakatlanishingizga va kurs ishingizni boshqarishingizga yordam beradi. Kurs navigatsiyasi menyusi har doim tegishli sahifalarida ko'rinadi.

Muhokamalar. Bu kurs doirasidagi dolzarb muhokamalar. Munozaralar so'nggi faoliyat bo'yicha tartiblangan. Siz ushbu bo'lim sarlavhasini faqat ushbu bo'limda muhokamalar mavjud bo'lganda ko'rasiz va taxrirlaysiz.

Baholar. Kursdagi "Baholar" sahifasida barcha kurs topshiriqlari uchun barcha joriy baholar ko'rsatiladi. Shuningdek, siz reyting tafsilotlari, sharhlar va bo'limlarni ko'rishingiz mumkin. Agar o'qituvchingiz bir nechta baholash davrlaridan foydalanayotgan bo'lsa, siz topshiriqlarni baholash davri bo'yicha ham filtrlashingiz mumkin. Agar sizda yakunlangan kurslaringiz bo'lsa va ularning mazmuniga kirish imkoniga ega bo'lsangiz, istalgan faol kursdan o'sha baholarni ko'rishingiz mumkin.

Xabarlar - bu Canvas xabar almashish tizimi bo'lib, u yerda kurslaringizdagi boshqa foydalanuvchilar bilan muloqot qilishingiz mumkin.

Talabalar o'qituvchisi kurs uchun ruxsat bergan istalgan Canvas sohasida qatnashishi mumkin. Talabalar bir yoki bir nechta kurslar bilan bog'lanishi mumkin va ish topshirishlari, baholar, topshiriqlar va voqealarni ko'rishlari va boshqa kurs a'zolari bilan muloqot qilishlari mumkin.



Ta'lim muassasasiga qarab, talabalar Canvas kurslariga kirishning turli darajalariga ega bo'lishi mumkin. Talabalar barcha o'tmish, joriy va kelajakdagi kurslarga kirishlari mumkin. Shu bilan bir qatorda, talabalar individual kurslarga yozilishi mumkin.

Xulosa. Masofaviy o`qitish tizimi masofaviy o`qitishni tashkil qilish, o`quv jarayonini qo`shimcha qo`llab-quvvatlash tizimi, elektron hujjat aylanishi, elektron o`quv materiallarini yaratish, o`rganilayotgan fan doirasida boshqaruvni boshqarish va taraqqiyotni baholash va maslahat berish uchun dasturiy ta`minotdir. Masofaviy o`qitish o`qituvchi va talaba bir-biridan uzoq bo`lsa, o`qitishga imkon beradigan Internet texnologiyalaridan faol foydalanishni nazarda tutadi. Endi buning uchun Internet yoki mahalliy kompyuter tarmoqlarining imkoniyatlaridan foydalanilmoqda. Zamonaviy ta`lim sohasi ta`limning bir necha shakllarini taklif etadi: kunduzgi, sirtqi, kechki, sirtqi va masofaviy o`qitish.

Adabiyotlar.

1. Sobirov R.A., Axrorov M.SH. Talabalarning kaspiy kompetentlikni aniqlashning zamonaviy psixodiagnostik dasturiy vositalaridan foydalanish samaradorligi. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi TATU Samarqand filiali "Zamonaviy axborot, kommunikatsiya texnologiyalari va AT-ta'lim tatbiqu muammolari" mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjumani ma'ruzalar to'plami // Samarqand. 24-25 noyabr 2021-yil. // ISBN 978-9943-6558-6-7. II-tom. 156-157 bb.
2. Муртазаева, У. И., Наркулов, А. С., & Собиров, Р. А. (2017). ОСОБЕННОСТИ НЕТРАДИЦИОННЫХ МЕТОДОВ ОБУЧЕНИЯ В ПРОФЕССИОНАЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ. Научное знание современности, (6), 93-96.
3. D.T. Muxamediyeva, N.A. Niyozmatova, R.A. Sobirov, B.N. Samijonov. Approaches to solving problems of Markov modeling training in speech recognition. International Conference on Emerging Trends and Applications in Artificial Intelligence (ICETAI). September 08-09, 2023



4. Toirov, S. A., & Boynazarov, I. M. (2023). Grover usuliga asoslangan kvant algoritm bilan optimallashtirish. INTERNATIONAL JOURNAL OF THEORETICAL AND APPLIED ISSUES OF DIGITAL TECHNOLOGIES, 5(3), 67-75.
5. Niyozmatova, N. & Mamatov, Narzillo & Tulyaganova, Sh & Samijonov, Abdurashid & Samijonov, B.. (2023). Methods for determining speech activity of uzbek speech in recognition systems. 050019. 10.1063/5.0145438.
6. Mamatov, N.S., Niyozmatova, N.A., Yuldoshev, Y.S., Abdullaev, S.S., Samijonov, A.N. (2023). Automatic Speech Recognition on the Neutral Network Based on Attention Mechanism. In: Zaynidinov, H., Singh, M., Tiwary, U.S., Singh, D. (eds) Intelligent Human Computer Interaction. IHCI 2022. Lecture Notes in Computer Science, vol 13741. Springer, Cham. https://doi.org/10.1007/978-3-031-27199-1_11
7. N. S. Mamatov, N. A. Niyozmatova, A. N. Samijonov and B. N. Samijonov, "Construction of Language Models for Uzbek Language," 2022 International Conference on Information Science and Communications Technologies (ICISCT), Tashkent, Uzbekistan, 2022, pp. 1-4, doi: 10.1109/ICISCT55600.2022.10146788.